



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TRANSPOZITSIYA VA KONVERSIYA HODISALARINING TURKUMLARARO MUNOSABATI

Erbutayeva Shalola Utkirovna

Samarqand davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada transpozitsiya va konversiya tushunchalarining umumiy va farqli jihatlarini ilmiy asosda izohlangan. Tilda mavjud ko'chish hodisalarini sathlararo tahlil etilganda bu hodisalarning turkumlararo munosabati turli ekanligi, morfologik tizimda ko'chish: transpozitsiya va konversiya hodisalariga xos bo'lgan misollar orqali ifodalangan.

Kalit so'zlar: Til tizimida ko'chish, transpozitsiya, konversiya, affiksatsiya, kompozitsiya, leksik-semantik ko'chish, yadro-periferiya.

МЕЖКАТЕГОРИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ ЯВЛЕНИЙ ТРАНСПОЗИЦИИ И КОНВЕРСИИ

Эрбутаева Шалола Уткировна

Самаркандский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В данной статье научно объясняются общие и отличительные особенности понятий транспозиции и конверсии. Явления перехода в языковой системе анализируются на межуровневом уровне, показывается различие их межкутегорияльных отношений. В частности, процессы перехода в морфологической системе рассматриваются на примерах, характерных для транспозиции и конверсии.

Ключевые слова: переход в языковой системе, транспозиция, конверсия, аффиксация, композиция, лексико-семантический переход, ядро-периферия.

INTERCATEGORY RELATIONS OF TRANSPOSITION AND CONVERSION PHENOMENA

Erbutayeva Shalola Utkirovna

Samarkand State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article scientifically explains the common and distinctive features of the concepts of transposition and conversion. The phenomena of shift within the language system are analyzed at the interlevel, demonstrating the differences in their intercategory relations. In particular, the processes of shift in the morphological system are examined through examples characteristic of transposition and conversion.

Keywords: shift in the language system, transposition, conversion, affixation, composition, lexical-semantic shift, core-periphery.

Transpozitsiya va konversiya munosabati haqida gapirganda morfologiyani grammatik tabiati to'g'risida ham qisqacha to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Morfologiya tor ma'noda tilning morfologik qurilishi hamda so'z shakllari haqidagi ta'limotni anglatadi. Akademik A. Hojiyevning fikriga ko'ra, morfologiya so'z turkumlarini, ularga xos grammatik ma'nolarni, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni, shu

kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi grammatik shakllar va ma'nolarni o'rganadi. Til tizim sifatida mavjud bo'lgani kabi uning morfologiyasi ham o'ziga xos tizimni tashkil etadi. Morfologik tizim esa o'z navbatida, kichik tizimlardan iborat bo'lib, har birining mohiyati yoritilgach, tilning morfologiyasi yaxlit tizim sifatida o'rganiladi.

Tilshunoslikda belgilangan qoidalarga ko'ra har bir so'z turkumida shu turkumga xos bo'lgan ichki tizim mavjud. Nisbatan bir so'z turkumi doirasi bilan chegaralanuvchi bu kichik tizim shu turkumga mansub bo'lgan morfologik kategoriyalardan iborat bo'ladi. Masalan, ot so'z turkumida son, egalik, kelishik kategoriyalari, sifatda esa daraja kategoriyasi mavjud. Morfologik kategoriyalar, so'z turkumlariga xos bo'lgan ma'lum bir hodisaga oid umumiy va xususiy ma'nolarni hamda ushbu ma'nolarni ifodalovchi so'z shakllarining birligidan tashkil topadi. Bu shakllar, o'z navbatida, so'z turkumining grammatik jihatdan ifodalangan xususiyatlarini aks ettiradi. Ana shu so'z shakllari va ularga xos umumiy va xususiy ma'nolar yoritilishi bilan muayyan morfologik kategoriyalarning mohiyati belgilanadi. Boshqacha aytganda, morfologik tizim ichidagi ichki tizimlardan birining mohiyati belgilanadi. So'z yasash tizimida yangi so'z (leksema) hosil bo'lishi uchun qanday usul (yo'l) bilan amalga oshirilsa ham, quyidagi hodisalarni farqlash zarur:

1. Grammatik so'z yasash: bu usulda so'z yasash quyidagicha amalga oshadi:

a) affiksatsiya (affiks yordami bilan yasash);

b) kompozitsiya (so'z qo'shish yo'li bilan yasash);

v) konversiya (so'zni bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqasiga, boshqa turkumga ko'chirish yo'li bilan yasash).

2. Leksik-semantik so'z yasash: bu usulda yangi so'zning ma'nosi o'zgarishi yoki yangi ma'no qo'shilishi orqali hosil bo'ladi.

3. Fonetik so'z yasash: bu usulda so'zning tovush tuzilishi yoki talaffuzi orqali yangi so'z hosil bo'ladi.

So'z turkumlariga ajratish prinsipi tarixi tilshunoslikda turlicha bo'lgan: formal, semantik, sintaktik (funksional) va hokazo. So'z turkumlarini formal ajratishda bir sinf chegarasida chiroqli, ikkinchi, shunday kabi umumiy grammatik belgilarga ega so'zlar bor. Semantik doirada tasniflashda esa semantikada umumiylik hosil qiluvchi yugur va yugurmoq so'zlari birlashadi. Ularni harakat tushunchasi birlashtirib turadi. Sintetik tillar (yunoncha *synthetikos* – qo'shiluvchi, birikuvchi) – tillarning tipologik sinfidir. Bunda bir so'z tarkibida bir nechta morfemalar (leksik, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi) birlashib, leksik va grammatik ma'nolarni ifodalovchi tillar mavjud. Sintetik tillarda so'zlarning o'zgarishi va ma'nolarni ifodalashda morfemalar qo'shib, bir butun tizimni tashkil qiladi. Ularda sintetizmni – so'z ichidagi grammatikani ifodalovchi usullarga ichki fleksiya, affiksatsiya, so'z takrori, so'z qo'shish va urg'uni kiritish mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "ishchilarga" so'z shakli sintetik holatda bo'lib, unda ham leksik (ish va chi), ham grammatik (-lar va -ga) ma'nolar ifodalangan. Sintetik tillar sintetizmning bor-yo'qligi jihatidan analitik tillarga, ortiq kamligi jihatidan polisintetik tillarga qarshi qo'yiladi, lekin sintetik tillar bilan analitik tillar orasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, chunki sintetik tillar ma'lum darajada analitik usul vositalaridan, analitik tillar esa sintetik usul vositalaridan foydalaniladi. Tilshunoslik bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarda morfologik transpozitsiya usuli affiksatsiya, shuningdek, konversiya hisoblanadi, degan qarashlar ham mavjudligi haqida yuqorida aytib o'tgan edik. Shu o'rinda konversiya hodisasi nimaligi va ko'chish hodisasiga bog'liq tomoniga izoh berib o'tishimiz joiz.

Tilshunoslikka oid lug'atlarda ta'rif berilishicha, konversiya *latin.conversio* – aylanish, o'zgarish). So'zning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmay, bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga ko'chishi, shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishi ma'nosini anglatadi. Ko'rinadiki, transpozitsiyada so'zning turkumlardan ko'chishida funksional jihati, konversiyada esa yasash xususiyati inobatga olinadi. O'zakdosh so'zlar derivatsiyasida transpozitsiyaning tutgan o'rni

bo'yicha kuzatish olib borgan M.Baxtiyorov ayrim ishlarda berilgan sifatlarning nutqda sifatlanmishsiz qo'llanib, ot kabi shaklga kirishi va gapda otlar kabi nominal sintaktik vazifalarni bajarish hodisasi tilshunoslikda transpozitsiya deb ataladi, degan fikrga asoslanadi. Agar olimning keltirgan ta'rifiga asoslanadigan bo'lsak, bu izoh o'z qamroviga ko'ra lingvistik lug'atlarda berilgan ta'riflarga mos kelmaydi. A.I.Smirniskiy morfologik transpozitsiyani morfologik konversiya sifatida belgilaydi.[1,24] Sintaktik va morfologik transpozitsiya yoki konversiya lingvistik tahlil uchun katta qiziqish uyg'otadi. Sintaktik transpozitsiya oxirgi transpozitsiyaning boshlang'ich davri hisoblanadi. I.Kurilovich fikriga ko'ra, "to'liq transpozitsiya til diaxroniyasida sodir bo'lgan so'z (so'zshakllar)ning amal qilish jarayonida, ularning dastlabki so'z (so'zshakllar)dan leksik-semantik ajralishini yoki affikslarning ma'lum so'z yasovchi modellar bo'yicha funksional qayta o'zgarishini: kelishik fleksiya ot va sifatning adverbializatsiyalashishida suffiksga aylanishini, masalan: qadamlab, vaqti-vaqti bilan, bevosita; sifat va sifatdoshning substantivatsiyalashishida fleksiya sistemalarining o'ziga xos shakl o'zgarishini taqozo qiladi"[2,57] Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, tilshunoslikda so'z turkumlarida ko'chish hodisasi keng tarqalgan. Zamonaviy tilshunoslikda ko'chishning ikki turi farqlanadi: transformatsiya (diaxron rejada tuzilish) va kontaminatsiya/konversiya (sinxron rejada tuzilish). Shu o'rinda aytilish kerakki, transformatsiyada so'z ma'nosida siljish bo'lib, u asli turkum holatiga qaytadi. Masalan: biqin – inson organi, biqin – yon tomon; konversiyada esa bu holat kuzatilmaydi, ya'ni so'z butunlay turkumini o'zgartiradi. Masalan: gap – sintaktik sath birligi; gap – yig'in nomi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir so'z turkumida ko'chish hodisasi o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Masalan, substantivatsiya yoki otlashish (lot.substantivum – ot), – boshqa so'z turkumlarining otlashishi (sifat, fe'l, sifatdosh, son) natijasida bevosita predmetni ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lishi, ya'ni otga xos bo'lgan "kim?" va "nima?" so'roqlariga javob bera olishi.[3,519] Substansivatsiya transpozitsiyaning so'z yasallishining nomorfologik bo'lgan morfologik-sintaktik usuliga tegishli xususiy hodisasi hisoblanadi.[4,19] O'zbek tilida so'z turkumlarining ko'pchiligida, ayniqsa, sifatning otga ko'chishi tilda faol kuzatiladi. Bu jarayon substantivatsiya deb nomlanadi. Yirik tilshunos olim A.G'ulomov o'tgan asr o'rtalarida bu hodisa mohiyatini quyidagicha izohlagan edi: Sifat quyidagi hollarda otga ko'chadi: sifat aniqlab kelgan predmet – aniqlanmish (sifatlanmish) tushib qolganda, ya'ni sifatlanmishning tushib qolishi sifatlovchini otga (predmet ma'nosini anglatuvchi so'zga) ko'chiradi. Sifatlovchi gapda sifatlanmishning funksiyasini, ma'nosini va grammatik formalarini o'ziga oladi. Bunday holda aniqlanmishni aytishga ehtiyoj bo'lmaydi, natijada otlashish hodisasi yuz beradi.[5,26] Tilshunos olim M.Sodiqova esa substansivatsiya hodisasining a) maqol va matallarda uchrashi; b) kishi yoki hayvonlarning tabiiy (yoki sotsial) holatlarini (nuqson, kamchiliklarini) bildiruvchi sifatlar aniqlanmishsiz, ot tarzida qo'llanishi; v) kishi ismlari otlashgan sifatlardan bo'lishi mumkinligi; g) rang-tus bildiruvchi sifatlar ot kategoriyasi formantlarini (egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini) qabul qilgan holda hamda fe'llar bilan birikib kelganda otlashishi; d) hayvon (ko'pincha ot) tusini ifodalovchi sifatlar otlashib qo'llanishiga oid holatlarni tahlilga tortgan. [6,56]

Tahlil va natijalar. O'zbek tilida otlashish hodisasi ancha keng tarqalgan: sifatdan: yaxshilar ko'paysin. Qizillar oqlarga qarshi maydonga tushdi. Sifatdoshdan: O'qiganlar har jabhada ilgarilab ketishmoqda. Sanoq sonlardan: Birniki mingga, mingniki tumanga. Jamlovchi sonlardan: To'rtovlon tugal bo'lsa, unmaganin undirar, oltovlon ola bo'lsa, og'zidagini oldirar. Ravishdan: Ko'plar bu bosqichdan o'tgan. Taqlid so'zlardan: Bolalarning "shov-shuvi keksalarning boshini og'ritdi.. Harakat nomidan: Qochish – eng so'nggi chora emas!

Tilimizda ko'chish hodisasining yana quyidagi turlari uchraydi:

Adektivatsiya – (ingl.adjective, lot. Adjectivus – sifat) so'z yasallishining nomorfologik bo'lgan morfologik-sintaktik usuliga tegishli xususiy hodisasi. Bu transpozitsiyaning xususiy

hodisasi hisoblanib, boshqa soʻz turkumlarining sifatga koʻchish jarayoni tushuniladi. Taqqoslang: Tilla uzuk barmogʻimga kirmadi. Ushbu gapda tilla – metall nomi; Asfalt koʻcha boshida bir sharpa koʻrindi. Tilla va asfalt soʻzlari aslan ot soʻz turkumiga oid. Tilla uzuk va asfalt koʻcha birikmalarida ot turkumiga mansub soʻzlar yonma - yon qoʻllanilib, sifat turkumining sintaktik vazifasi – aniqlovchi gap boʻlagini hosil qilyapti. Sintaktik transpozitsiya gapda yaqqol namoyon boʻladi. Ikkinchi misolda ham tilla va asfalt leksemalari sifatlashgan hisoblanadi.

Tilda faqat ot soʻz turkumi sifatga koʻchmaydi, bu hodisa deyarli barcha mustaqil va yordamchi soʻzlarda uchraydi. Jumladan, adverbializatsiya – boshqa turkumga oid soʻzlarning ravishga koʻchishidir. Yaxshi soʻzi bunga yaqqol misol boʻla oladi. Aslida ravish soʻz turkumi nisbatan keyinroq “shakllangan” boʻlib, ot soʻz turkumi tarkibadagi belgi, makon va zamon bildiruvchi toʻplamlar hisobiga boyigan.

Xuddi shunday deyarli barcha turkumlararo koʻchish mavjud. Jumladan, pronominalizatsiya – bir soʻz turkumiga mansub soʻzlarning olmoshga koʻchishidir. Bu hodisa sof semantikdir. Bunday vaziyatda bir turkumga oid soʻz olmoshga koʻchishi bilan unga xos boʻlgan vazifani ham qabul qiladi. Numeralizatsiya – bir soʻz turkumining songa koʻchishi. Verbalizatsiya – bir turkumga oid soʻzning feʼlga koʻchishi. Predikativatsiya – hol kategoriyada koʻchish. Modalizatsiya – modal soʻzlarda bu jarayonning sodir boʻlishi.

Yordamchi soʻz turkumlari doirasida mustaqil soʻzlarning yordamchi soʻzlarga koʻchishi hodisasi ham keng tarqalgan. Mustaqil maʼnoli soʻzlarning koʻmakchilarga koʻchishi prepozitsionalizatsiya hodisasi hisoblanadi. Bogʻlovchilarda koʻchish hodisasi konyunksionalizatsiya, undov soʻzlarda koʻchish interektivatsiya, yuklamalarda esa partikulyatsiya hodisasidir.

Xulosa. Umuman olganda yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, oʻzbek tilshunosligida koʻchish tushunchasi bilan bogʻliq hodisalarni oʻrganish boʻyicha maʼlum ishlar amalga oshirilgan. Koʻchish hodisasining mohiyati, yuzaga kelish sabablari, turlari va nutq koʻrinishlarida qanday qoʻllanilishi alohida tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilishi kerak. Bu, oʻz navbatida, ushbu hodisani chuqurroq tahlil qilish va uning tilshunoslikdagi oʻrni hamda ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu borada amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalar qatoriga koʻchish jarayonining turli jihatlarini batafsil oʻrganish kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. – Москва: Московский государственный университет, 1998. – С. 24.
2. Курилович Е. Очерки по лингвистике. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1962. – С. 57.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 519.
4. Щерба Л.В. Некоторые выводы из моих диалектологических лужицких наблюдений (рус.) // Приложение к книге «Востоchnoлужицкое наречие». 1915. <https://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba>
5. Фуломов А. Ф. Морфология кириш. – Тошкент, 1953. – Б. 26.
6. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 55.-56.
7. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sintetik-tillar-uz/>
8. <https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=4521>
9. <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php>